

## YOSH BASKETBOL BILAN SHUG‘ULLANUVCHI O‘QUVCHILARNING UMUMIY CHIDAMLILIGINI TARBIYALASH MASALALARI BO‘YICHA PEDAGOGIK TADQIQOT NATIJALARI

*Xusanova Iroda Ravshanovna*

*Toshkent shahar Sergeli tumanidagi*

*104-maktabning jismoniy tarbiya o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** Maqolada basketbol bilan shug‘ullanuvchi yosh o‘quvchi-sportchilarning umumiy chidamliligini tarbiyalash masalalari bo‘yicha sohaning yetakchi mutaxassisleri bilan o‘tkazilgan anketa so‘rovnomasi javoblarini o‘rganish ko‘rinishidagi pedagogik tadqiqot natijalari va ularning tahlil qilinishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** basketbol, yosh sportchilar, anketa so‘rovnomasi, respondent, konkordatsiya koeffitsienti.

Keyingi yillarda mamlakatimizda jismonan baquvvat va ma‘nan sog‘lom, hech kimdan kam bo‘lmagan avlodni tarbiyalashga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Zero, yuksak ma‘naviyatli, har tomonlama barkamol avlodni voyaga yetkazish Vatanimiz kelajagini ta‘minlash va barcha ezgu maqsadlarimizni ro‘yobga chiqarishning muhim omilidir. Bu oliyanob maqsad yo‘lida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Oila, onalik va bolalikni muhofaza qilish, bolalar sportini rivojlantirish, ta‘lim tizimini takomillashtirish kabi yo‘nalishlardagi izchil islohatlar o‘zining samaralarini berayotir.

Farzandlarimizni yuksak bilimli va zakovatli, jismonan baquvvat insonlar etib kamolga yetkazishning bosh omili – bolalar sportini rivojlantirish masalasi davlatimiz va jamiyatimizning doimiy diqqat- e‘tiborida bo‘lib kelmoqda. Bugungi kunda bolalar sporti mamlakatimiz ta‘lim-tarbiya tizimining uzviy qismiga aylanib, ushbu soha bilan mutanosib ravishda izchil rivojlanmoqda. [3,4,5].

Yuqoridagi fikr-mulohazalar jismoniy barkamollikning muhim va eng murakkab elementlaridan biri bo‘lgan chidamlilikka ham bevosita taalluqlidir. Mutaxassislar [10,16,23,27] chidamlilikni rivojlantirish uchun bir qator uslubiyatlarini tavsiya etishgan. Lekin hozirgi kunda yosh sportchilarni tayyorlashda umumiy chidamlilikka kam e‘tibor berilmoqda. Bolalik davridan boshlab jismoniy yuklamalarni oqilona taqsimlashda umumiy chidamlilikni rivojlantirishga katta e‘tibor qaratish lozimligi mualliflar [19,26] tomonidan e‘tirof etilgan. Inson chidamli bo‘lishi uchun organizmdagi turli tizimlarning yaxshi rivojlanishiga erishish lozim. Bolalarning chidamlilik darajasini oshirish, birinchidan, yurak -tomir faoliyatini kuchaytirishni; ikkinchidan, funksional tizimlarning faoliyati jarayonida paydo bo‘ladigan quvvatni tejab-tergab sarflashni; uchinchidan, funksional imkoniyatlardan iloji boricha to‘la

foydalanishni nazarda tutadi [25,31,32,35]. Yuqorida bildirilgan fikr-mulohazalar tanlangan mavzuning dolzarbligini ko'rsatadi.

**Tadqiqot maqsadi:** basketbol bilan shug'ullanuvchi yosh o'quvchi-sportchilarning umumiy chidamliligini tarbiyalash masalalari bo'yicha mavjud ilimiy-uslubiy adabiyot materiallarini umumlashtirish va sohaning yetakchi mutaxassislari bilan o'tkazilgan anketa so'rovnomasi javoblarini o'rganish maqsadida pedagogik tadqiqot tashkil etish va unda olingan natijalarni umumlashtirish va tahlil qilish.

**Tadqiqot ob'yekti:** basketbol bilan shug'ullanuvchi yosh o'quvchi-sportchilarning umumiy chidamliligini tarbiyalash jarayoni.

**Tadqiqot usullari:** mavjud ilimiy-uslubiy adabiyot materiallarini umumlashtirish va tahlil qilish, anketa savollarini ishlab chiqish, anketa so'rovnomasini o'tkazish va natijalarini tahlil qilish.

**Tadqiqotni tashkil qilinishi:** ilimiy-uslubiy adabiyot materiallarini umumlashtirish va tahlil qilish hamda shaxsiy tajriba ma'lumotlarmiz asosida ishlab chiqilgan anketa so'rovnomasi savollariga sohaning yetakchi mutaxassislaridan jami 46 nafar respondent taklif etildi, shulardan 14 tasi tajribali pedagoglar, 15 tasi yuqori mahoratli sportchilar va 17 tasi ko'p yillik tajribaga ega bo'lgan sport respondentlaridan iborat bo'ldi. Ishlab chiqilgan anketa savollarini oddiy, ya'ni "Ha", "Yo'q" va "Aniq javob berolmayman" savollardan hamda oldingi yillarga nisbatan o'zgarishlar va kelajak istiqbollari o'ldirishga oid savollar tashkil qilgan.

**Tadqiqot natijalari va ularni muhokamasi:** basketbol bilan shug'ullanuvchi yosh o'quvchi-sportchilarning umumiy chidamliligini tarbiyalash bo'yicha yuqorida aytib o'tilgan oddiy savollar va ularga respondent - mutaxassislarning javoblari 1-jadvalda keltirilgan.

1. «Chidamlilikni tarbiyalash qanday vositalardan foydalanasiz?» - degan savolga 90% respondentlar dasturdagi materiallardan, 10% respondentlar qo'shimcha vositalardan (suzish, velosipedda yurish, har xil past - baland joylarda sayohat qilish va h.k.) foydalanishlarini bayon qilganlar.

2. «Mashg'ulotlar rejalashtirish xujjatlariga asoslanadimi?» - degan savolga respondentlarning 78,3% «Ha», 11,7% «Yo'q» deb javob berishgan va ularning 10% bu savolga javobni ochiq qoldirishgan.

3. «Mashg'ulotlar rejalari muayyan sharoit va guruhlar tarkibiga moslashtiriladimi?» - degan savolga respondentlarning 63,3% «Ha», 10% «Yo'q» deb javob qilishgan bo'lsa, 26,7% dan bu savolga umuman javob olinmadi.


4. «Mashg'ulotlarda zamonaviy axborot tizimlaridan foydalaniladimi?» - degan savolga respondentlarning 90% «Ha» javobini bildirishgan bo'lsa, 10% esa javob bermagan.

5. «Mashg'ulotlarda o'quv-uslubiy adabiyotlar yetarli-mi?» - degan savolga respondentlarning 90% «Ha» javobini bildirishgan bo'lsa, 10% esa javob bermagan.

1-jadval.

Respondentlarning oddiy anketa savollariga javoblari (n=46; soni va %)

Savol t.r.	Ha		Yo'q		AJB	
	soni	%	soni	%	soni	%
1	36	83,72	1	2,33	6	13,95
2	32	74,42	7	16,28	4	9,30
3	27	62,79	5	11,63	11	25,58
4	16	37,21	4	9,30	23	53,49
5	31	72,09	3	6,98	9	20,93
O'rtacha						



1-diagramma. Respondentlarning oddiy anketa savollariga javoblaridan ijobiy va aniq javob berolmaganlar soni.


Izoh: qolgan javoblar salbiy, ya'ni "yo'q" degan javoblar.

Respondentlarning so'rovnamaga kiritilgan oldingi yillarga nisbatan o'zgarishlar va kelajak istiqbollari o'ida savollar bo'yicha javoblarida quyidagicha manzara kuzatildi.

1. Chidamlilikni tarbiyalash bo'yicha vosita va usullarni oldingi yillarga nisbatan o'zgarishini baholang !
2. Fikringizcha, chidamlilikni tarbiyalash mashg'ulotlarida foydalaniladigan zamonaviy axborot texnologiyalari oldingi yillarga nisbatan qanday o'zgardi ?
3. Chidamlilikni tarbiyalash bo'yicha o'quv-uslubiy adabiyotlar ta'minoti oldingi yillarga nisbatan o'zgarishini baholang !

4. Yosh basketbolchilarni chidamlilikni tarbiyalashga kompetentligi yetarli murabbiylarni oldingi yillarga nisbatan sonini o'zgarishini baholang !
5. Yosh basketbolchilarimizni musobaqalardagi ishtiroki natijalari oldingi yillarga nisbatan qanday o'zgarib bormoqda !
6. Yosh sportchilarni basketbolga qiziqish va motivatsiyalarini oldingi yillarga nisbatan o'zgarishini baholang !

Savol t.r.	Ijobiy		O'zgarmagan		Salbiy	
	soni	%	soni	%	soni	%
1	19	44,19	8	18,60	16	37,21
2	17	39,53	9	20,93	17	39,53
3	16	37,21	11	25,58	16	37,21
4	20	46,51	11	25,58	12	27,91
5	17	39,53	12	27,91	14	32,56
6	18	41,86	10	23,26	15	34,88
O'rtacha	17,83	41,47	10,17	23,64	15,00	34,88



**2-diagramma. Respondentlarning o'zgarishlar va kelajak istiqbollariга oid savollarga javoblaridan ijobiy va aniq javob berolmaganlar soni.**

Izoh: qolgan javoblar salbiy, ya'ni "yomon tomonga" degan javoblar.

Respondentlarning o'zgarishlar va kelajak istiqbollariга oid anketa savollariga javoblari orasida eng katta yaxshilanish Yosh basketbolchilarning chidamliligini tarbiyalashga kompetentligi yetarli murabbiylarning ortishida kuzatilgan. Oldingi

yillarga nisbatan eng yomon o'zgarish esa chidamlilikni tarbiyalash bo'yicha vosita va usullarning yanada kamayishida deb vaholangan.

**Xulosa.** Umuman olganda, sohaning yetuk mutaxassislarining fikrlariga ko'ra, Yosh basketbolchilarning chidamliligini tarbiyalash mashg'ulotlarini tashkil qilish, rejalashtirish, uni tarbiyalash vositalari va uslublaridan foydalanish masalalari bo'yicha respondentlarning bir xil fikrda emasligi aniqlandi. Shu sababli bu sohadagi vazifa va masalalar hamon dolzarbligicha qolmoqda va kelgusida har tomonlama ilmiy izlanishlar olib borib o'rganishni talab qiladi.

### Adabiyotlar

1. Акбаров А. “Спортда математик таҳлил усуллари”, ўқув қўлланма, УзДЖТСУ, 2020, 228 с. [http://library.uzdjtsu.uz/files/pdf/Sportda\\_matematik\\_tahlil.pdf](http://library.uzdjtsu.uz/files/pdf/Sportda_matematik_tahlil.pdf)
2. Акбаров А. Спортда математик статистик таҳлил: **darslik**. – Т.: Узкитобсавдонашриёти, 2022. – 265 с. <https://unilibrary.uz/my-university/literature>.
3. Акбаров а, Спортда педагогик тадқиқот натижаларини интерпретация қилиш усуллари солиштириш, Фан-спортга, 2021, № 6, 62-64 б.
4. Левушкин С.П., Н.А Лапшин, К.В. Зуев, Определение специальной работоспособности баскетболистов на основе современных методов, Теория и практика физ.культуры, № 12, 2018, с.42
5. Лепёшкин В.А., Баскетбол. Подвижные и учебные игры.- М: Советский спорт, 2013.- 98 с. <http://e.lanbook.com/view/book/51914/page15/>
6. Педагогические измерения в спорте: методы, анализ и обработка результатов / В. П. Губа, Г. И. Попов, В. В. Пресняков, М. С. Леонтьева. – Москва: Спорт, 2020. – 324 с.: URL: <https://biblioclub.ru/index.php?page=book&id=596076> – Библиогр.: с. 291 - 293. – ISBN 978-5-907225-47-3.